# TAFAKKUR USLUBINING DUNYOQARASHGA DOIR MOHIYATI

**Abdullayev Temur Bobir o‘g‘li**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
2-bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Bugungi kunda jahonda dunyoni bilishning dastlabki usulini, inson tafakkuri imkoniyatlarini ochib berish shaklini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Falsafiy dunyoqarash jamiyatdagi ziddiyatlarni bartaraf qilishda nafaqat ong, balki tasavvurlarga murojaat qilishni taqozo qilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** tafakkur uslubi, ong, dunyoqarash, tasavvur, materiya.

Dunyo ilmiy manzarasining yangi qiyofasini shakllantirish va ularning ilmiy bilimlar bilan mutanosibligini ta’minlashda tafakkur uslubi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inson o‘z taraqqiyotining dastlabki davrlaridanoq boshqa mavjudotlardan ongning mavjudligi bilan farq qilgan. Onging paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlarni qadimdan bizgacha yetib kelgan manbalarda duch kelamiz. Deyarli barcha faylasuflar, falsafiy ta’limotlar va yo‘nalishlarni inson ichki olami va uning sir-sinoatlari o‘ziga jalb etgan. Qadimgi Xitoy, Hindiston, Yunonistondan tortib hozirgi zamonaviy falsafiy yo‘nalishlargacha, barchasida inson ichki olami, inson ongi va uning turli qonuniyatlari borasida o‘ziga xos tasavvurlar va g‘oyalar ilgari surilgan. Qadimdanoq insonlar o‘zlari uchun ikki xil olamni: obyektiv, insonning istak va ixtiyoridan tashqarida bo‘lgan Kosmosni va insonning ichki, subyektiv olamni tasavvur qila boshlashganligi manbalardan ma’lum. [1, B.53]

Fransuz faylasufi Lyusen Levi-Bryulning inson tafakkurining kelib chiqishini tekshirishga bag‘ishlangan “Ibtidoiy tafakkur” nomli asarida ko‘pgina olimlar tomonidan to‘plangan faktik materiallarni umumlashtirishga urinib, ilmga zid “mantiqdan oldingi” va mantiqiy tafakkurlar nazariyasini ilgari surgan. Bu “nazariya” ga ko‘ra, kishilar jamiyat taraqqiyotining quyi bosqichlarida go‘yo mantiqiy tarzda mantiq qonunlari bo‘yicha fikrlaydigan, balki tasavvur yordamida aloqa qiladi. Shuningdek, mantiqiy tafakkur keyinroq, jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichlarida paydo bo‘lgan, aniqroq aytganda, yevropalik millatlar mantiqiy, “tuzem”liklar esa mantiqsiz fikrlaydilar. L.Levi-Bryul xotira tafakkurga bog‘liq emas, uning o‘zi mustaqil ravishda mavjud deb uqtiradi. Uning ta’kidlashicha, “Sivilizatsiya jamiyati” kishilari fikrlaydilar, quyi jamiyat kishilari faqat eslash bilan cheklanadilar. “Bizning ijtimoiy tafakkur xazinamiz, - deb yozgan edi L.Levi-Bryul, - umumlashtirilib, bir-biriga bog‘liq tushunchalar yordamida bayon etiladi. Qoloq jamiyatlarda bu narsa ba’zan cheksiz jamoaviy tasavvurlardan iborat bo‘ladi. Bu tasavvurlar juda murakkab

va hajman ham kattadir. Bu yerda u batamom xotira yordamida bayon etiladi”. [2, B.73]

Avstriyalik faylasuf-pozitivist Ernst Max insonning olamni bevosita sezish imkoniyati cheklangan, shu sababli olamda, tabiatda bo‘ladigan jarayonlarning aks-sadolarinigina eshitishi mumkinligini ta’kidlagan. Sezgilar bilish jarayonida katta rol o‘ynaydi. Ular odamlarni atrofdagi voqelik bilan bog‘laydi. Lekin sezgilarning ahamiyati qanchalik katta bo‘lmasin, ular obyektiv mavjud narsalarning inson ongidagi aksidan boshqa narsa emas. “Sezgi – bilishning zaruriy manbai, biroq bilish uchun sezishning o‘zi kifoya qilmaydi. Shunday narsalar va narsalarning xossalari mavjudki, o‘ta kichkinaligi tufayli ularni sezgilar ilg‘ay olmaydi. Narsalarning bunday xossalari faqat aql bilan idrok etiladi va bunday bilish ham haqiqiy bo‘lishi mumkin. Masalan, biz bo‘shliqlarni ham, barcha jismlarda mavjud atomlarni ham ko‘rmaymiz, eshitmaymiz va his qilmaymiz. Biroq aql yordamida biz ularning amalda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz”. [3, B.82]

Yunon faylasufi Geraklit butun borliqning asosida moddiy narsa yotishini e’tirof qilish bilan, ongning materiyaga bo‘lgan munosabatini ham materialistlarcha hal qiladi. U, ong tan bilan bog‘liqligi, ongning ikkiyuzlamachiligini ta’kidlab, ongning o‘zini ham materiya deb biladi va ong bilan moddani tenglashtiradi. Bu Geraklit materializmi chegaralanganining nishonasidir. Umuman, bu kamchilik butun qadimgi Yunoniston materializmiga xos edi. Geraklit moddaning birlamchiligi va ongning ikkilamchiligi masalasini bilish sohasiga tatbiq qilishni ham materialistlarcha hal qiladi.

Geraklit narsalarni bilish mumkinligini e’tirof qilish bilan bir qatorda, bilish jarayonida sezgi organlari bilan tafakkurning asosiy rol o‘ynashiga ham katta ahamiyat beradi. Geraklit fikricha, bilish jarayoni kishi sezgi organlari olingan tasavvurlardan boshlanib, tafakkur orqali takomillashadi. Geraklit aytishicha, kishining sezgi organlari tashqi dunyo to‘g‘risida faqat ajralgan, ayrim ma’lumotlarnigina beradi, xolos, haqiqiy bilimni esa tafakkur orqaligina olish mumkin, deb hisoblagan.

Yana bir antik davr faylasuflaridan biri Demokrit bilish nazariyasini chuqur ishlab chiqish falsafa tarixida katta iz qoldirib ketdi. U dunyoni bilish mumkinligini e’tirof qildi va bilish jarayonining asosiy bosqichlarini materialistik asosda isbotlab berdi. Demokrit bilish jarayonining birinchi qilib sezgilarni oladi. Uning fikricha, har bir narsadan mayda moddiy obrazlar ajralib chiqib, bizning sezgi organlarimizga ta’sir etadi, shuning natijasida ongimizda narsalar to‘g‘risida ma’lum tasavvurlar paydo bo‘ladi.

Odamning o‘zi yashayotgan olam haqidagi tasavvurlari, unga munosabati dunyoqarash degan tushunchada ifodalanadi. Odamning dunyoqarashi beixtiyor yuzaga kelgan narsa emas. Dunyoqarash deyarli butunlay kishilarning hayot kechirish

sharoitlaridan kelib chiqadi. Kishilarning turmush sharoitlari turlicha bo‘lganligidan, dunyoqarashlari ham turlichadir.

Inson ongining borliqqa munosabati masalasi dunyoqarash doirasiga kiruvchi bilimlar ichida markaziy o‘rnini egallaydi. Dunyoqarashning ilmiy xarakteri – tafakkurning borliqqa munosabati masalasini ilmiy asosda hal etishga bog‘liqdir.

Tafakkurning borliqqa munosabati masalasi, dastavval, ularning qaysi biri birlamchi – borliq birlamchimi yoki tafakkur birlamchimi, degan masala sifatida qo‘yiladi. Masalani bu tartibda qo‘yish quyidagi mazmunga ega: odamlar uzoq davrlardan boshlab dunyoda ikki xil hodisa – moddiy va ruhiy, ideal hodisalar borligini ajrata bilganlar. Kishi ongidan tashqarida bo‘lgan hamma narsalar moddiy hodisalarga kiradi. Bular yer, tog‘lar, daryolar, o‘simliklar, hayvonlar va tabiatning boshqa juda ko‘p narsalaridan iborat. Kishining ongi esa, ruhiy hodisalarga kiradi. Bizning sezgilarimiz, tasavvurlarimiz, tushunchalarimiz shular jumlasidandir.

Tafakkur – obyektiv voqelikning inson ongida abstrakt aks etish jarayonidir. Insonlarning amaliy faoliyatlari shuni ko‘rsatadiki, inson ongi umuman moddiy dunyoning buyum va narsalarning to‘g‘ri aks ettiradi. Ammo, shu bilan birga, inson tafakkuri yaratgan tushunchalar, mulohaza va nazariyalarda doimo fantaziyaning zarrasi ham fikrning voqelikdan bir oz uzoqlashishi holati bo‘ladi. Bu hol shunda ifoda topadiki, odamlar tabiat hodisalarini bilayotganlarida, ularning ayrim xususiyatlarini payqamay qolishlari yoki, aksincha, hodisalarning boshqa xususiyatlariga haddan tashqari ahamiyat berib yuborishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, inson tafakkuri doimo o‘zidan ilgari qoldirilgan bilimlarga va fanning muammolari bilan ish ko‘radi. Fan esa bu muammolarni yechish bilan birgalikda, amaliyotdan o‘zishi va unga ongli ravishda yo‘l ko‘rsatishi kerak bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. В.В. Чешев Проблема познания в философии. Томск, 2003.
2. Леви-Брюль. Первобытное мышление. - Москва., 1930.
3. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya - Bilish nazariyasi. – Toshkent: 2008.